



**OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**YOSH FILOLOG
OLIMLAR JAMIYATI**

“TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK ODIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

2024-yil 30-aprel

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI

**“TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO‘LIDAGI
ILK ODIMLAR”**

**Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari
2024-yil 30-aprel**

TOSHKENT

“Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi 2024

UDK: 811.512.
133:821
(063)

“Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2024.

Mas’ul muharrirlar:

Sh.Sirojiddinov, ToshDO‘TAU rektori, akademik;

O.Jamoldinova, p.f.d., professor;

S.Yusupov, Yosh filolog olimlar jamiyati raisi.

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

Temirova Sabina, Hazratqulova Shohsanam, Abdug‘afforova Zuhra, Rajapova Hulkaroy, Berdiyeva Sabinabonu, Eshboyeva Shoira, Qaxramova Sabinabonu, Mahmudov Bobur, Xaytaxmatova Dilnavoz, Axmadov Dostonbek

Tahrir hay’ati:

f.f.d Qurbonova Munavarra; f.f.d Umida Rasulova; PhD Umurzaqova Marhabo, f.f.n Soatova Gulzoda; f.f.d.Asadov Mahmadiyor; dots. Hamroyev Komiljon; PhD Yusufjonova Nazokat, f.f.n To‘laboyeva Ruxsora; Ergasheva Habiba; f.f.d Xoldorov Dilmurod.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan “**Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar**” nomli respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan. Anjuman materiallari 7 ta bobga bo‘lingan bo‘lib, ular quyidagilardir:

- O‘zbek tilshunosligi masalalari;
- Xorijiy va qiyosiy tilshunoslik muammolari;
- Jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari;
- O‘zbek mumtoz adabiyoti muammolari;
- Zamonaviy o‘zbek adabiyoti;
- Folklorshunoslik va shevashunoslik muammolari, amaliy filologiya masalalari;
- Til va adabiyot o‘qitish metodikasi.

To‘plam materiallaridan filologiya ilmiga qiziquvchi barcha foydalanishi mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir)

©Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, 2024
©Yosh filolog olimlar jamiyati, 2024
© “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2024

2. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

3. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademiya nashri.

4. Ёўлдош, А. (2014). Пуанкаре. Тошкент: Академнашр.

5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-alvido-go-zallik-hikoya>

6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-tilla-soat-hikoya>

7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduqayum-yoldosh-puankare-kitobidan.html>

O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANIDA FOJIAVIYLIK

Shermuxammad Abdumajitov

Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti

kechki bo'lim 2-kurs talabasi

shermuxammadabdumajitov21@gmail.com

***Annotatsiya.** El suygan adib O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida ijtimoiy hayotning turli mavzularini yoritib bergan. Xususan, biz tahlilga tortayotgan ijodkorning “Tushda kechgan umrlar” romanida fojiaviylik mavzusi ilgari surilgan. Ushbu maqolada shu haqda so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** Fojiaviylik, kundalik, adolatsizlik, Rustam, illat, to‘y, Soat G‘aniyevich.*

***Abstract.** The beloved writer O‘tkir Hashimov covered various topics of social life in his works. In particular, the theme of tragedy is put forward in the author's novel "Late Lives in a Dream", which we are analyzing. This article is about it.*

***Key words:** Tragedy, diary, injustice, Rustam, vice, wedding, Soat Ganiyevich.*

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida zamon ruhiga doir muammolarni ifodalagan mualliflardan biri bu – O‘tkir Hoshimovdir. Ijodkor o‘ziga xos teran nazari, voqelikka betaraf yondashuvi, qolaversa, o‘z uslubi bilan davr ijodkorlari orasida o‘zi va asarlari uchun tirikligidayoq haykal qo‘ya oldi. Uning o‘zi ta’kidlaganidek: ”Menimcha, chinakam badiiy asar yaratish uchun odamlarni hayajonga soladigan, har gal takror o‘qiganda ko‘ngilga zavq bera oladigan asar yaratish uchun eng avvalo xudo bergan talant – iste’dod kerak” deb so‘z yuritadi.

Uning “Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor”, “Tushda kechgan umrlar” kabi asarlari romanchiligimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan. Xususan, “Tushda kechgan umrlar” asarining o‘ziga xos jihati mavjud. Biz bu asarda fojaviy qahramon va boshqa shunga o‘xshash xususiyatlarni uchratishimiz mumkin.

Ijodkor bu asarni kuz faslining ta’rifi bilan boshlaydi. Ya’ni kuzni o‘lim to‘shagida yotgan bemorga, to‘rt kunlik umrida dunyoga sig‘magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig‘layotgan bulutlarni yorqin so‘zlar bilan tasvirlab yoritib beradi. Bu faslni biz fojiaga o‘xshatishimiz mumkin. Chunki daraxtlarning barglari yerni chulg‘ashi, osmondagi bulutlarning achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kishi kabi o‘xshatishlarni insoniyatning fojaviy yo‘lini belgilab berishini ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Negaki, har yili bahor faslida gullagan, kurtak yoygan daraxtlarning barglari, kuz fasliga kelib, keyingi avlod uchun o‘z umr vazifasini ado etib, ularning hayot yo‘li davom etishi uchun o‘z umrini qurbon qilayotgandek go‘yo.

Asarning bosh qahramoni Rustam ismli bola bo‘lib, asar muallifi qahramonni ismiga mos jihatlari bilan gavdali, jasur, bahodir, halol kabi sifatlar orqali yana bir bor ismi o‘ziga xosligini ochib beradi. Romandagi asosiy voqealar Rustamning kundaligidan so‘zlashni boshlaydi. Muallif kundalikka ham urg‘u berib o‘tgan. Ya’ni asardagi voqealarning asosi har kungi bo‘lib turadigan hodisalar, kuzatishlar natijasida yozib boriladigan daftarda aks etishi asarda yaqqol sezilib turadi.

Fojaviy qahramonni muallif ijobiy tusda tasvirlashi, o‘z davrining orzu-umidlari, u yoki bu qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug‘vor shaxsni namoyon etishi, adolatsizlikka, kishini-kishi ezishiga qarshi insonlarni xo‘rlash va haq-huquqidan mahrum etishlariga qarshi fidokorona, mardlarcha kurashini ifodalaydi. Yuqoridagi asarda biz Rustamni fojaviy obraz deb olsak bo‘ladi. Rustam obrazida tragik qahramonga xos bo‘lgan xususiyatlar o‘ziga xos namoyon bo‘ladi. Xususan, tragik qahramonning maqsadi oliy, uning vazifasi ham shunga xos olijanoblik. Rustamning qismati go‘zal o‘lim, bu qismat hammaga ham nasib etmagan. Chunki Rustam har doim kundaligini boshqalarning nigohidan yashirib yurardi va o‘limi oldidan quyidagilarni aytib o‘tadi:

...Bilagim achishyaptimi? Hammayoq qon-ku! Nima qibti: qonni endi ko‘rishimmi? Sham tugay deyapti...Tezroq...Daftarni joyiga qo‘yishim kerak. Avvalgilarining oldiga...

Men necha yoshga chiqdim o‘zi? Yigirma ikkiga? Yo‘g‘-e, axir men yetshim ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidir! Nima farqi bor?! “Donolar hayotni kuzaturlar jim...”

Tamom! Hammasi tamom bo‘ldi... Ajab... Yuragim nega buncha osoyishta? Qilt etsa-chi? E-ha... Axir... Men endi yo‘qman-ku. Bu dunyoda borligingdan kim

*naf ko'rdi-yu, yo'qligingdan kimga ziyon? Oyimga achinyapman. Dadamga... Shahnozaga... Rozi bo'linglar... Onajon... Meni kechiring, oyi!*¹³⁵. Muallif Rustamni asarda juda ham ko'p vaziyatlarda ijobiy tusda tasvirlaydi. Bu esa qahramonning muallif tilidan fojining yuzaga kelishidagi bir bosqich deb qaralsa ham bo'ladi. Asarda birinchi navbatda fojiviy hodisalar mamlakatda qonunga hurmat qilmaslik(tupurip qo'yishlik), insonlarning fikri umuman inobatga olinmasligi, adolatsizlik, begunohlarning tuhmat va aybdorga aylanishlari kabi hollar juda aniq va ravshan ko'zga tashlanadi. Bunday illatlarni yo'qotishga Rustam, nafaqat Rustam, balki ayrim insonparvar ham qancha harakat qilmasin, lekin baribir ularni yengish qiyin ekanligini tushunib yetishlari ancha murakkab masala edi. Hattoki, Yuqorida turganlarning o'zlari ham bu kabi illatlarni yo'qotish o'rniga, insonparvarlarni, vidjoni toza kishilarni uyaltirib, ularni aybsiz aybdorga chiqarib qo'yishmoqda. Oddiygina misol qilib oladigan bo'lsak, Rustamning otasi qamalib surgun bo'lishi, uning yon qo'shnisi Qurbonoy xolaning ham otasi va akasining jazolanishlari va boshqa ko'plab adolatsizliklar o'sha davrdagi haqiqiy fojiviylikni ochib berishda yaqqol dalil hisoblanadi. Rustam o'z hayotida davomidagi xotirasidagi o'y-xayollar bilan qo'lidan kelgancha, imkoni yetkuncha kurashdi, lekin uning oxirgi pallalarda kuchi borgan sari tugayotganini o'zi his qilmayotgan edi, ya'ni uni quvib yurgan fojiviy taqdiri o'zi bilmagan holda qarshisida paydo bo'ldi va u ayoli Shahnozaning ham otasi korrupsiya, adolatsizlik orqali olib bergan uyini ro'kash qilganidan so'ng g'azab oti uning ustidan g'alaba qildi hamda o'zini o'zidan qutqarish maqsadida hech kim yo'qligini bilib, o'zini bu dunyodan olib qochib, o'limiga yakun yasaydi.

Romandagi bu kabi holatlarni ochib beruvchi voqealar talaygina. Asardagi fojiviy holatlarni bartaraf etmoqchi bo'lmaganlar orasida Soat G'aniyevich degan kattakonlarga o'xshaganlarni jamiyatdan surgun qilish kerak degan o'y, asarni o'qigan kitobxonlarning dilida qolib ketgan bo'lsa ajabmas. Yoki bo'lmasam, Rustamjonlarning qo'shnisi to'y qilganda dam olayotgan Vasilyev Grigoriy Stepanovich o'zbek to'ylarining shovqin-suroniga chidamasdan ularning ustiga tepadan chelakda suv sepib yuborishi va to'yni buzganligi ham bir fojia sifatida yodda qoladi. O'zbeklarning urf-odati doimgidek shovqin-suron, karnay-surnaylarga, o'yin-kulgularga boy tarzda o'tib kelishi kitobxonlarga ma'lum. U o'z akasi bilan bu o'lkaga kelganda "Toshkent yovvoyilar shahri" deb, o'zlaridagi oziq-ovqat narxlarining qimmatligini bu yurtga kelmaganda bilmas edi. Yana bir asosiy jihatlardan biri, Qurbonoy xolaning otasi To'lagan Hakimovni yaponlarga yordam berib, ulardan xat olganini tuhmat qilib Soat G'aniyevich uning hayot yo'liga to'sqinlik qiladi. Aksincha yapon kishi to'siqning narixi tomonida turganida unga

¹³⁵ O'.Hoshimov "Tushda kechgan umrlar". G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent - 2002

olma bergan To‘laganga yapon uning bergan narsasiga xaq to‘lashi va mehnat ishini qadrlash orqali o‘zlarining madaniyatini bizga shunday vaziyatda ham ko‘rsatib bermoqda. Mana bizning fojiamiz. To‘laganning xotini Fotimaning o‘zini o‘zi joniga qasd qilishi ham Soat G‘aniyevichga o‘xshagan kimsalar shunday chiroyli oilaning boshiga yetgani ham mudhish halokat hisoblanadi.

Muallif o‘zining bu asari haqida shunday deydi:

Vatanim Istiqlolga erishmasa, bu asar dunyo yuzini ko‘rmas edi. Albatta bu asarda 20-asrdagi ajib adolatsizliklar qarshisida lol qolgan ayrim insonlar hayoti, turmush tarzi, ularning qonun oldidagi himoyasizliklari batafsil ochib berilgan. Yana shuni ta’kidlash ham joizki, o‘zbek xalqi hayotining real badiiy tasviri va har bir obrazning o‘z o‘rnida qo‘llashi va ichki ma’nolardan foydalanishi asarni o‘qish jarayonida, kitobxonda juda katta hissiyot uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshkent - 2002. O‘.Hoshimov “Tushda kechgan umrlar”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
2. XX asr o‘zbek adabiyoti. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005.
3. Internet manbalari.(oyina.uz)

SHOYIM BO‘TAYEVNING “ABRO‘K HIDI” HIKOYASIDA FOJIAVIYLIK TASVIRIDA KONTRAST USULI

Sobirjonova Irodaxon Sobirjonovna,
ToshDO‘TAU O‘TAT 4-bosqich talabasi
[*irodaxonsobirjonova69@gmail.com*](mailto:irodaxonsobirjonova69@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli o‘zbek adibi Shoyim Bo‘tayev qalamiga mansub “Abro‘k hidi” hikoyasi tahlil qilinadi. Unda qo‘llangan kontrast (antiteza) badiiy usuli va uning asar ta’sirchanligini oshirishdagi badiiy vazifasi ochib beriladi. Yozuvchi mahoratiga baho beriladi. Muayyan ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Shoyim Bo‘tayev, “Abro‘k hidi” hikoyasi, kontrast (antiteza) usuli.

Abstract. This article analyzes the story “Abrok Khidi” (“The Smell of the Abrok Flower”), written by the famous Uzbek writer Shoyim Butaev. The used artistic device of contrast (antithesis) and its artistic function in increasing the effectiveness of the work are revealed. The writer's skill is assessed. Some scientific conclusions have been drawn.

Razzaqov Bekzod Botir o'g'li, SAID AHMADNING QORAKO'Z "MAJNUN" HIKOYASIDA VAFODORLIK TIMSOLI	582
Safarova Hamrooy Qahramon qizi, ZULFIYA IJODINING YUKSALISHIDA HAMID OLIMJONNING O'RNI	585
Sanaqulova Mohiniso Toyirjon qizi, SOBIR O'NARNING "YIGITLARNING BIRI" NOMLI HIKOYASIDA BADIY PSIXOLOGIZM VA ICHKI NUTQ UYG'UNLIGI	589
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi, BAG'ISHLOV SHE'RLAR: RASSOM QISMATI SHOIR CHIZGISIDA	593
To'raqulova Gulsevar Omon qizi, "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDA YOZUVCHINING OBRAZ YARATISH MAHORATI	597
To'ymurodova Sabrina Boboxonovna, JADID ADABIYOTIDA O'ZBEK QIZI RUHIYATI (A.QODIRIY, CHO'LPON VA HAMZANING ASARLARI ASOSIDA)	602
Turdiyeva Navruzgul Ro'ziboy qizi, LUQMON BO'RIXON HIKOYALARIDA PORTRET YARATISH MAHORATI	606
Xayriyeva Ma'suma Fozil qizi, "ROBIYA BALXIY" QISSASINING HADDI A'LOSI VA FOJIAVIY BADIY YECHIMI	618
Xodjiyeva Sevinch Odiljonovna, O'ZBEK MITTI HIKOYALARI – DRABLLAR HAQIDA MULOHAZALAR	621
Yusubjonova Marhabo Ma'rufjon qizi, ABDULLA QODIRIYNING "O'TGAN KUNLAR" ASARIDA AYOLLAR OBRAZI RUHIYATI IFODASI	625
Sayfiddinova Ziyat Abduzohidovna, MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA TASVIRIYLIK (QOBILJON SHERMATOV, ERKIN MALIK ASARLARI MISOLIDA)	631
Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi, ABDUQAYUM YO'LDOSH HIKOYALARINING SYUJET XUSUSIYATLARI	634
Abdumajitov Shermuxammad, O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMLAR" ROMANIDA FOJIAVIYLIK	643
Sobirjonova Irodaxon Sobirjonovna, SHOYIM BO'TAYEVNING "ABRO'K HIDI" HIKOYASIDA FOJIAVIYLIK TASVIRIDA KONTRAST USULI	646
Tojiddinova Dildoraxon Shukurillo qizi, ERKIN VOHIDOV IJODIDA TABIAT TASVIRI: IJODINING DASTLABKI YILLARIDA YOZGAN SHE'RLARI MISOLIDA	650
Xolmurotova Gulnora Azmuddin qizi, O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA USTOZ OBRAZINING BADIY TALQINI	655
Mamadaliyeva Muxlisaxon, BOLALAR DUNYOSIDA YASHAGAN SHOIR	664
Hamroyeva Sadoqat Nurali qizi, FAXRIYOR SHE'RLARIDA ISHQ TALQINI VA TASVIRI	667
Abdullayeva Sevinch O'mirbek qizi, ANVAR OBIDJONNING "MO'TTIVOYMISAN, MITTIVOYMISAN?" QISSASI BADIY XUSUSIYATLARI	673
Xojiyeva Laylo Zokirjon qizi, "MOMO YER QO'SHIG'I" QISSASINING BADIY TAHLILI	679
Bahriddinova Gulsanam Zavqiddin qizi, MIRTEMIR SHE'RLARIDA XALQONA PAFOS	681
Xaytaxmatova Dilnavoz Alijon qizi, SHAHODAT ULUG'NING "XALOSKOR SULTON SAYFIDDIN QUTUZ" ASARIDAGI OBRAZLAR TAVSIFI	686